

SPORTDAGI KORRUPSIYAGA (PORAXO'RLIKKA) QARSHI KURASH VA UNING UCHUN JAVOBGARLIK BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI

Oblakulov Davlat Oltinboyevich

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada aynan sport sohasida korrupsiyaning eng xavfli ko'rinishlaridan biri bo'lgan poraxo'rlik uchun javobgarlik bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilgan. Olingan natijalar asosida mamlakatimiz qonunchiligiga sport sohasida poraxo'rlik uchun javobgarlikni joriy qilish bo'yicha taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish, korrupsiya, pora evaziga og'dirib olish, doping.

Abstract. This article examines the experience of foreign countries in prosecuting bribery, one of the most dangerous forms of corruption in sports. On the basis of the obtained results, the author has developed proposals and conclusions on the introduction of responsibility for bribery in the field of sports into the country's legislation.

Key words: manipulation of sports competitions, corruption, bribery, and doping

Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyoda 800 milliondan 1,2 milliardgacha odam havaskor yoki professional darajada sport bilan shug'ullanadi, sportdan tushadigan yillik daromad esa 145 milliard AQSH dollariga baholanmoqda[1].

Qayd qilganimizdek, jahonda so'nggi o'n yilliklarda sport sohasi firibgarlik, poraxo'rlik, tovlamachilik, sport natijalarini manipulyatsiya qilish kabi korrupsiya shakllariga hamda doping muammosiga duch keldi. Bu esa, sportdagi korrupsiya mojarolarining ko'payishi xalqaro hamjamiyat tomonidan mavjud korrupsiya xavflariga e'tiborni kuchayishiga olib keldi.

Jumladan, 2014-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Shveysariyaning Maglingen shahrida Sport musobaqalarini manipulyatsiya qilishga qarshi konvensiya (Maglingen konvensiyasi) qabul qilingan.

Mazkur Konvensiyaning 3-moddasida "sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish — o'zi yoki boshqalar uchun ortiqcha ustunlikka erishish maqsadida sport musobaqasining oldindan aytib bo'lmaydigan (faraz qilib bo'lmaydigan) xususiyatini to'liq yoki qisman yo'q qilish uchun sport musobaqasining natijasini yoki uning borishini qasddan o'zgartirishga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik" deb ta'rif berilgan[2].

2016-yilda "Transparency International" tomonidan nashr etilgan "Global Corruption

Report: Sport", ya'ni Sportdagi korrupsiya to'g'risida xalqaro maxsus hisobot xalqaro hamjamiyatni va mutaxassislar e'tiborini tortdi[3].

Shuningdek, 2021-yil 9-yanvarda BMT tarixida sportdagi korrupsiya to'g'risida birinchi xalqaro hisobot nashr etildi va u BMT Bosh Assambleyasining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha birinchi maxsus sessiyasida qabul qilindi.

Zamonaviy tadqiqotlarni o'rganish asosida sport sohasidagi eng ko'p tarqalgan huquqbuzarliklarni uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi, sport musobaqalari paytida jamoat tartibini buzishga qaratilgan huquqbuzarliklar; ikkinchisi, sport sohasidagi korrupsiya; uchinchisi, sportda doping bilan bog'liq huquqbuzarliklar[4].

Sportdagi korrupsiya, musobaqalarni manipulyatsiya qilish, doping va zo'ravonlik (har qanday turdagi) sport uchun asosiy tahdidlardan hisoblanadi.

Zero, sport musobaqalari bilan bog'liq korrupsiyaning xavfi davlat va jamiyat uchun yetkazilgan moddiy zarar va ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarga asoslangan sport musobaqalarining nufuziga putur yetkazish bilan belgilanadi[5, 460 b].

Sportning korrupsiya xavfi eng ko'p yuqori bo'lgan sohasi futbol bo'lib, bu haqda FIFA eksperti janob Gautier Aubert futbol korrupsiya xavfi yuqori sohadir, chunki o'yinning keng

geografiyasi va kompaniyalaridagi katta garovlar tikish tufayli bu yerda son-sanoqsiz manipulyatsiyalar bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi [6].

Bizga ma'lumki, korrupsiya – har qanday davlatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, butun dunyoda global muammo hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish har qanday davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu sababli xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida sport sohasidagi korrupsiya uchun javobgarlik belgilangan normalarni o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

Akademik A.X.Saidov ta'kidlaganidek, “qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, bir tomondan, chet elda asosiy muammoni hal qilishda o'zini oqlagan foydali omillarning barchasini aniqlashga ko'maklashsa, boshqa tomondan xorij tajribasining salbiy tomonlarini, u yoki bu huquqiy yechimlarning samarali emasligini hisobga olish uchun imkon yaratadi [7].

BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tahlillariga ko'ra, 2021-yil holatiga ko'ra, sport musobaqalari natijalariga turli shakllarda qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatganlik uchun 45 ta mamlakat yurisdiksiyasi (jumladan, AQSH, Argentina, Armaniston, Avstraliya, Braziliya, Ozarbayjon, Xitoy, Fransiya, Gruziya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Janubiy Koreya, Moldova, Portugaliya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Tojikiston va Ukraina) qonunchiligida jinoiy javobgarlik choralari belgilangan [5, 460 b].

Quyida biz ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida sportdagi korrupsiya uchun javobgarlikning qiyosiy-huquqiy tahlilini ko'rib chiqamiz.

1. Italiya jinoyat qonunchiligida sportdagi korrupsiya va poraxo'rlik uchun javobgarlik bo'yicha maxsus (§ 48.1.50 – Legge 13 dicembre 1989, n. 401. “Interventi nel settore del giuoco e delle scommesse clandestini e tutela della correttezza nello svolgimento di manifestazioni sportive” (Qimor o'yinlariga aralashish va noqonuniy pul tikish va sport tadbirlarida adolatni himoya qilish) qonun qabul qilingan [8].

Mazkur Qonunning “Sport musobaqalarida firibgarlik” deb nomlangan 1-moddasiga ko'ra, Italiya milliy Olimpiya qo'mitasi (CONI), ot zotlarini ko'paytirish bo'yicha Italiya Ittifoqi

(UNIRE) tomonidan tan olingan federatsiyalar tomonidan tashkil qilingan sport musobaqalari ishtirokchilariga musobaqa natijalariga ta'sir ko'rsatish uchun pul yoki har qanday afzalliklarni taklif yoki va'da qilgan har qanday kishi yoki davlat tomonidan tan olingan boshqa sport tashkilotlari ularning a'zo jamiyatlari yoki xuddi shu maqsadga erishishga qaratilgan boshqa firibgarlik harakatlarini sodir etganlik uchun ikki yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 1000 dan 4000 yevrogacha jarima bilan jazolanishi belgilangan.

Mazkur moddaning 2-qismiga ko'ra, pul yoki har qanday noqonuniy afzallikni qabul qilgan yoki uning va'dasini qabul qilgan tanlov ishtirokchisiga ham xuddi shunday javobgarlik nazarda tutilgan.

Umuman, Italiya jinoyat qonunchiligida sport sohasidagi jinoyatlarni uch turi, ya'ni 1) sportdagi korrupsiya; 2) sport musobaqalari paytidagi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar; 3) sportda doping uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

2. Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniyada sport sohasidagi korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurash alohida dolzarblik kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, GFR jinoyat qonunchiligi 265c§-moddasida sportdagi qimor o'yinlariga asoslangan firibgarlik uchun, 265d§-moddasida professional sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish uchun javobgarlik belgilangan [9].

GFR JKning 265d-moddasida professional sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish uchun javobgarlikni nazarda tutilgan.

3. Fransiya JKning 1-bo'limi “Davlat (jamoat) funksiyasini bajarmaydigan shaxslarning passiv va faol korrupsiyasi” deb nomlanib, 445-1-1-moddasiga ko'ra, sport musobaqalari natijasini o'zgartirishga yoki sport musobaqalarining adolatli o'tishiga harakat yoki harakatsizligi orqali ta'sir qilish uchun musobaqa ishtirokchilariga o'zi yoki uchinchi shaxslarning manfaati uchun pora, ya'ni moddiy yoki har qanday noqonuniy afzalliklarni va'da qilgan yoki taklif qilgan, taqdim qilgan har qanday shaxsga nisbatan JKning 445-1-moddasida ko'rsatilgan besh yilga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanishi belgilangan [10].

Fransiya JKning 445-2-1-moddasiga ko'ra, sport musobaqasining har qanday ishtirokchisi

sport musobaqalarini normal va adolatli o'tkazilishiga yoki natijasini o'zgartirishga ta'sir qilish uchun pora, ya'ni moddiy yoki har qanday noqonuniy afzalliklarni o'zi yoki boshqalar uchun qabul qilganligi JKning 445-2-moddasida ko'rsatilgan, ya'ni besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi. Jinoyatni takroran, ya'ni ikkinchi marotaba sodir qilinishi og'irlashtiruvchi holat hisoblanib, jazo og'irroq tayinlanishi uchun asos bo'ladi.

Fransiya jinoyat qonunchiligida sport sohasidagi korrupsiyani ikki guruhi, ya'ni:

a) sportdagi korrupsiya uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi umumiy normalar;

b) sport tadbirlari ishtirokchilarining poraxo'rliqi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus normalar nazarda tutilgan.

4. AQSHda sportdagi poraxo'rlikka qarshi kurashish uchun 1964-yilda "Sportda poraxo'rlik to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Ushbu qonunga ko'ra, har qanday sport musobaqasi natijasiga poraxo'rlik bilan ta'sir qilish maqsadida har qanday kelishuvni amalga oshirish uchun harakat qilgan, harakat qilmoqchi bo'lgan yoki boshqa shaxs bilan til biriktirgan shaxs besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanishi nazarda tutilgan [11, 346–354 b].

5. Buyuk Britaniyada sport sohasidagi korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlik belgilovchi maxsus qonun qabul qilinmagan. Bunday jinoyatni sodir qilgan shaxs umumiy qoidalarga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin va sport musobaqalari paytida pul tikish bilan bog'liq korrupsion huquqbuzarlik Britaniyada firibgarlik sifatida tasniflanadi [12].

6. Armaniston JKning 201-moddasi "professional sport musobaqalari va ajoyib tijorat tanlovlari ishtirokchilari va tashkilotchilarining poraxo'rliqi" deb nomlanib, unga ko'ra, musobaqa (tanlov)lar natijalariga ta'sir o'tkazish uchun sportchilar, sport hakamlari, murabbiylar, jamoa rahbarlari yoki professional sport musobaqalarining boshqa ishtirokchilari va tashkilotchilari, shuningdek ajoyib tijorat tanlovlari tashkilotchilari va tanlov komissiyasi (hakamlar hay'ati) a'zolarini pora olish – eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oydan bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki oydan oshmaydigan muddatga qamoq jazosi bilan jazolanadi [13].

Mazkur moddaning 2-qismiga ko'ra, xuddi shu harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilsa – besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur moddaning 3-qismiga ko'ra, sportchilar, sport hakamlari, murabbiylar, jamoa rahbarlari yoki boshqa ishtirokchilar yoki professional sport musobaqalari rahbarlari yoki tijorat musobaqalari tashkilotchilari va musobaqa komissiyasi (hakamlar hay'ati) a'zolari tomonidan musobaqalar yoki musobaqalar natijalariga ta'sir o'tkazish maqsadida noqonuniy moddiy boyliklarni olish yoki mulk bilan bog'liq xizmatlardan noqonuniy foydalanish uchun – eng kam ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish yoki ikki oydan uch oygacha qamoq yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

7. Qirg'iziston Respublikasi JKning 229-moddasi "Sportchilarning poraxo'rliqi" deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra, musobaqa yoki musobaqa natijasiga ta'sir o'tkazish uchun sportchi, sport hakami, murabbiy, jamoa rahbari yoki professional sport musobaqasining boshqa ishtirokchisi yoki tashkilotchisi, shuningdek ajoyib tijorat musobaqasi tashkilotchisi yoki hakamlar hay'ati a'zosiga pora berish – uch yilgacha ma'lum lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan holda 200 dan 500 gacha hisoblangan ko'rsatkichlar bo'yicha jarima bilan jazolanadi [14].

Mazkur moddaning 2-qismiga ko'ra, sport hakami, murabbiy, jamoa rahbari yoki sport musobaqasi tashkilotchisi, shuningdek musobaqa yoki musobaqa natijasiga ta'sir o'tkazish uchun ajoyib tijorat musobaqasining tashkilotchisi yoki hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan noqonuniy ravishda pul, moddiy boyliklar olish yoki moddiy xarakterdagi xizmatlarni qabul qilish – uch yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan holda 500 dan 1000 gacha hisoblash indeksleri bo'yicha jarima bilan jazolanadi.

8. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi "rasmii sport musobaqasi

yoki ajoyib tijorat musobaqasi natijalariga noqonuniy ta'sir" qilish uchun javobgarlikni nazarda tutadi [15]. Unga ko'ra, sportchiga, sport hakamiga, murabbiyga, sport jamoasi boshlig'iga, rasmiy sport musobaqasining boshqa ishtirokchisiga yoki tashkilotchisiga (shu jumladan ularning xodimiga), shuningdek hakamlar hay'ati a'zosiga, pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulkning ajoyib tijorat tanlovi ishtirokchisi yoki tashkilotchisiga rasmiy sport musobaqasi yoki ajoyib tijorat musobaqasi natijalariga noqonuniy ta'sir ko'rsatish yoki bunday shaxslarni ushbu ta'sirni o'tkazishga majburlash yoki ishortirish yoki shu maqsadlar uchun bunday shaxslar bilan oldindan til birlashtirish uchun moddiy qimmatliklarni berish yoki mulkiy manfaatdor etish (xususan, bunday shaxsning ko'rsatmasi bilan mulk o'tkazilganda yoki mulk bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilganda, yoki mulk huquqi boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga berilganda) – uch yuz mingdan yetti yuz ming rublgacha jarima yoki to'rt oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga mahkumning ish haqi yoki boshqa daromadlari miqdorida, yoki uch yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan yoki to'rt yilgacha majburiy mehnat yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, yuz ming rublgacha jarima yoki mahkumning ish haqi yoki boshqa daromadlari miqdorida besh oygacha yoki uch yilgacha muddatga ma'lum lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

9. Moldova Respublikasi JKning 333-moddasiga ko'ra, tijorat, jamoat yoki boshqa nodavlat tashkilotni boshqaradigan yoki ishlaydigan shaxs tomonidan hakamlik sudi tomonidan har qanday nizoni hal qilish uchun saylangan yoki tayinlangan hakam (hakamlik sudi sudyasi) tomonidan sport tadbirining ishtirokchisi o'zi yoki boshqa shaxs uchun, o'z xizmat vazifalariga kiritilgan harakatni bajarish yoki bajarmaslik evaziga, kechiktirish yoki tezlashtirish yoki o'z vazifalarini buzgan holda, shuningdek sport tadbirlari natijalariga ta'sir ko'rsatish uchun shaxsan yoki vositachi orqali mulk, mulkiy xizmatlar, afzalliklar yoki imtiyozlar har qanday shaklda so'rash va qabul qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan [16].

Moldova JKning 334-moddasida uning 333-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga mulkiy yoki

noqonuniy afzallikni va'da, taklif qilgan yoki berganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu moddaning 4-qismida rag'batlantiruvchi norma mavjud bo'lib, shaxsdan tovlamachilik qilib pora olingan bo'lsa ushbu shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ixtiyoriy ravishda murojaat qilib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

10. Ozarbayjon JKning 192-2-moddasida sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish uchun javobgarlik belgilangan [17]. Unga ko'ra, sportchiga, sport hakamiga, murabbiyga, homiyga yoki boshqa shaxsga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachi orqali to'g'ridan-to'g'ri unga yoki uchinchi shaxslarga sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish maqsadida moddiy va boshqa afzalliklarni taklif qilish, va'da berish yoki o'tkazish – uch mingdan besh ming manatgacha jarima yoki uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur moddaning 2-qismiga (192-2.2.) ko'ra, sportchi, sport hakami, murabbiy, homiy yoki boshqa shaxs tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachi orqali to'g'ridan-to'g'ri o'zi yoki uchinchi shaxslar uchun sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish maqsadida har qanday harakat (harakatsizlik) uchun moddiy va boshqa imtiyozlarni talab qilish yoki olish yoki ularning taklifni qabul qilishi uchun mingdan besh minggacha manat miqdorida jarima yoki uch yildan olti yilgacha ma'lum bir lavozimni egallash yoki ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur moddada og'irlashtiruvchi belgilar sifatida takroran sodir qilish, bir guruh, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tomonidan sodir qilish nazarda tutilgan.

Mazkur moddaning 4-qismiga ko'ra, (192-2.4.) sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish maqsadida sportchiga, sport hakamiga, murabbiyga, homiyga yoki boshqa shaxsga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo'rvonlik yoki zo'rvonlik tahdididan foydalanish yoki ularni yoki ularning yaqin qarindoshlari haqida shaxsiy sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarini tarqatish bilan tahdid qilish yoki ularning yoki yaqin qarindoshlarining mol-mulki yoki mulkni yo'q qilish bilan qo'rqitish orqali

biror-bir harakatni amalga oshirishni yoki qilmaslikni talab qilish (tovlamachilik) – uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ozərbayjon JKning (192-2.5.) 192-2.4-moddasida nazarda tutilgan harakatlar hayot yoki sog'liq uchun xavfli zo'rlik ishlatish bilan sodir bo'lsa – uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ozərbayjon JKning 192-2.1, 192-2.2 va 192-2.4-moddalarida "sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish" deganda shaxsning o'zi yoki boshqalar foydasiga noqonuniy ustunlikka erishish uchun sport musobaqalarining borishi yoki natijasini qasddan o'zgartirishga qaratilgan harakat (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi.

Ozərbayjon JKning 192-2.1-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs, agar u tegishli davlat organiga bu haqda ixtiyoriy ravishda xabar bergan yoki tahdid tufayli sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi deb belgilangan.

Ozərbayjon JKning 192-2.2-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan mansabdor shaxs o'z xizmat vazifalarini (vako-latlarini) bajarishi munosabati bilan Ozərbayjon JKning 311-moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

11. Gruziya JKning 203-moddasida professional sport musobaqalari yoki tijorat ko'ngilochar tanlovlari ishtirokchilari yoki tashkilotlarining pora berganlik uchun javobgarligi nazarda tutilgan [18].

Mazkur moddaning 1-qismida (bandida) professional sport musobaqalari ishtirokchilari, sudyalari, murabbiylar, jamoa rahbarlari yoki professional sport musobaqalari tashkilotlari yoki tijorat ko'ngilochar tanlovlarining tashkilotchilari yoki hakamlar hay'ati a'zolariga musobaqalar yoki tanlovlar natijalariga ta'sir o'tkazish uchun pora berish uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur moddaning 2-qismida og'irlashtiruvchi belgi takroran sodir etish uchun, 3-qismida ushbu moddaning 1 yoki 2-bandlarida nazarda tutilgan harakat uyushgan guruh tomonidan sodir etilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu moddaning 4-qismida professional sport musobaqalari ishtirokchilari tomonidan musobaqalar yoki tanlovlar natijalariga ta'sir qilish maqsadida pul, qimmatli qog'ozlar yoki

boshqa mol-mulkni noqonuniy ravishda olish yoki mulkiy xizmatlardan foydalanish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu moddaning 5-qismida sudyalari, murabbiylar, jamoa rahbarlari yoki professional sport musobaqalari tashkilotlari, shuningdek tijorat ko'ngilochar tanlovlarining tashkilotchilari yoki hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan musobaqalar yoki tanlovlar natijalariga ta'sir ko'rsatish maqsadida pul, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa mol-mulkni noqonuniy olish yoki mulkiy xizmatlardan foydalanish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Gruziya JKning 203-moddasi eslatmasida ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan har qanday shaxsga pul, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa mol-mulkni berish yoki mulkiy xizmatlar ko'rsatishni hokimiyatga ixtiyoriy ravishda e'lon qilgan shaxslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi, deb belgilangan.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinadiki, aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida sportdagi poraxo'rlik uchun javobgarlik belgilangan.

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida sportdagi poraxo'rlik uchun javobgarlik masalalarini tahlil qilganimizda, Italiya va AQSHda sportdagi korrupsiya maxsus qonun bilan tartibga solingan bo'lsa, Buyuk Britaniyada esa umumiy firibgarlik yoki poraxo'rlikdan ajratilmagan holda javobgarlik nazarda tutilgan. GFR, Fransiya, Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi va Ozərbayjon qonunchiligida sport sohasidagi poraxo'rlikni nazarda tutuvchi yoki sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish uchun javobgarlik belgilangan.

Sportdagi poraxo'rlik jinoyati predmeti borasida gap ketganda tahlil qilgan davlatlar jinoyat qonunchiligida Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasida faqat moddiy yoki mulkiy xizmatlar pora predmeti sifatida tan olingan bo'lsa, Italiya, GFR, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Moldovada har qanday noqonuniy manfaatdorlik pora predmeti sifatida tan olingan. Ozərbayjon JKda esa mulkiy yoki boshqacha imtiyozlar pora predmeti bo'lishi mumkinligi keltirilgan.

Rossiya va Qirg'izistonda jinoyat obyektiv tomondan pora predmetini taqdim qilganda (yoki mulkiy xizmat amalga oshirilganda) tamomlanadi. Italiya, GFR, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniyada esa jinoyat kesik tarkibli,

ya'ni pora so'rashni o'zi tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatish jinoyatini sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish Rossiya, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova JKda 6 yilgacha, Armaniston, Fransiya JKda 5 yilgacha, Germaniya JKda 3 yilgacha belgilangan. Bu borada Fransiya, Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon jinoyat qonunchiligida sportdagi poraxo'rlik uchun jarima, ozodlikdan mahrum qilish bilan bir qatorda, muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari nazarda tutilgan.

Rossiya, Moldova, Gruziya, Ozarbayjon jinoyat qonunchiligida pora evaziga og'dirib olishni amalga oshirgan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutuvchi rag'batlantiruvchi norma ham mavjud.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, aksariyat davlatlarda sportdagi poraxo'rlikning oldini olish uchun jinoyat qonunchiligida javobgarlik belgilangan. Bu borada xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda mamlakatimiz JKda yangi quyidagi mazmundagi 214¹-“Sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarini pora evaziga og'dirib olish” degan modda bilan to'ldirish taklif qilinadi:

“214¹-Sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilarini pora evaziga og'dirib olish

Sportchi, trener, sport hakami yoxud sport musobaqalarining boshqa ishtirokchilari va tashkilotchilariga sport musobaqalari yoki mukofotlanadigan tanlov natijalarini yoki uning borishini qasddan o'zgartirish yoki boshqa tarzda noqonuniy ravishda tadbir natijalariga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularning bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni ularni pora evaziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoxud bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, noqonuniy manfaatdorlikni, ya'ni moddiy yoki nomoddiy haq yoki mulkiy tUSDagi ish, xizmat yoki boshqa imtiyozlar yoxud boshqacha nafni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish jazolanadi.

Sportchi, trener, sport hakami yoxud sport musobaqalarining boshqa ishtirokchilari va tashkilotchilarini sport musobaqalari yoki mukofotlanadigan tanlov natijalarini yoki uning borishini qasddan o'zgartirish yoki boshqa tarzda noqonuniy ravishda tadbir natijalariga

ta'sir ko'rsatish maqsadida ularning bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni ularni pora evaziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoxud bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, noqonuniy afzalliklarni, ya'ni moddiy yoki nomoddiy haq yoki mulkiy tUSDagi ish, xizmat yoki boshqa imtiyozlar yoxud boshqacha nafni talab qilish yoki qabul qilib olish jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran;

b) ko'p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, – jazolanadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar

a) takroran;

b) ko'p miqdorda;

v) tamagirlik yo'li bilan;

g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, – jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, – jazolanadi”.

Basharti pora evaziga og'dirib olishni amalga oshirgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o'ttiz sutka ichida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Bu borada (jami 190 nafar ishtirokchi) o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari tahlili ham respondentlarning 56,8 foizi sport sohasidagi poraxo'rlik uchun alohida javobgarlik belgilash zarur deb hisoblaganlar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sport sohasida sodir etiladigan jinoyatlar, shu jumladan sportdagi korrupsiyaning jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlar yetarli darajada o'rganilmaganligini inobatga olib, uni alohida tadqiqot doirasida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. <https://www.transparency.org/en/publications/global-corruption-report-sport> Kirish sanasi 18.07.2024
2. <https://www.coe.int/en/web/sport/match-fixing> Kirish sanasi 27.07.2024-yil // <https://rm.coe.int/russian-cets-2015/16809ed41b> Kirish sanasi 28.07.2024 yil
3. <https://www.transparency.org/en/publications/global-corruption-report-sport> Kirish sanasi 18.07.2024
4. Крупник И.А. Уголовная ответственность за посягательства на отношения в сфере спорта в России и зарубежных странах: Дис. ... канд. юрид. наук. –Москва, 2022.
5. Musashayxov K.X. Sport sohasida kelishilgan o'yinlar bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar va unga qarshi kurashish choralari// "Ilm-fan va ilmiy faoliyatda korrupsiya va byurokratiya: muammo va uning yechimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy davra suhbat materiallari to'plami // Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov, yu.f.f.d., dos. Sh.I.Shayzakov. –Toshkent, 2024.– 552b.
6. Храмова Д. А. Коррупция в спорте// Scientia Potentia Est. – 2019. – №2.
7. Саидов А.Х. Сравнительное правоведение (основные правовые системы современности): Учебник / Под ред. В.А. Туманова. – М.: Юрист, 2003. – 448 с.
8. http://www.edizionieuropee.it/law/html/23/zn48_01_050.html kirish sanasi 18.07.2024
9. German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB)// https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html Kirish sanasi 28.07.2024
10. <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14297> Kirish sanasi 22.07.2024
11. Крупник И.А. Противодействие преступлениям в сфере профессионального спорта в законодательстве государств англо-саксонской системы права / И.А. Крупник. — DOI 10.17150/2411-6262.2024.15(1).346-354.-EDN ZANGCF// Baikal Research Journal. -2024.-Т.15, №1.
12. Bribery Act 2010.<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2010/23/contents> Kirish sanasi 25.05.2023
13. <http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show> Kirish sanasi 25.07.2024
14. <https://cbd.minjust.gov.kg/112309/edition/12625/ru> Kirish sanasi 25.07.2024
15. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/ Kirish sanasi 27.07.2024
16. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30394923&pos=80;-46#pos=80;-46 Kirish sanasi 24.07.2024
17. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=259;-59 Kirish sanasi 25.07.2024
18. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=262> Kirish sanasi 28.07.2024-yil

